

Xolmanova Feruza Uralovna,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Termiz davlat universiteti
E-mail: feruzahalmanova@gmail.com

OZIQ-OVQAT SANOATI TARMOQLARIDA QISHLOQ XO'JALIGI XOM ASHYO RESURSLARINI QAYTA ISHLASH MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada oziq-ovqat sanoatida yetishtirilayotgan mahsulotlarni qayta ishlash va aholi ehtiyoji uchun yetkazib berish masalalari va sohadagi hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar tahlil etilgan. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash yomonlashib, mahsulot yetishtiruvchilarning, uni qayta ishlovchilarning daromadlari kamayadi. Shuning uchun ham bugungi kunda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, tashish, qayta ishlash va sotish bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlarni kooperasiya orqali integratsiyalashni rivojlantirish hamda uzluksizligini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, issiqxona, "O'zgo'shtsanoat", "Surxondaryogo'sht", mahsulot.

ВОПРОСЫ ПЕРЕРАБОТКИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО СЫРЬЯ В СЕТЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Аннотация

В статье анализируются вопросы переработки и поставки продукции, произведенной в пищевой промышленности, для нужд населения, а также проблемы, которые необходимо решить в этой области. Снабжение населения продовольственными товарами ухудшится, а доходы производителей и переработчиков снизятся. Именно поэтому на сегодняшний день одним из актуальных вопросов является развитие интеграции через кооперацию и обеспечение непрерывности всех процессов, связанных с производством, транспортировкой, переработкой и реализацией сельскохозяйственной продукции.

Ключевые слова: продукты питания, сельское хозяйство, теплица, "Ўзгуштсаноат", "Сурхондарёгушт", продукты.

ISSUES OF PROCESSING AGRICULTURAL RAW MATERIALS IN FOOD INDUSTRY NETWORKS

Abstract

The article analyzes the issues of processing and supply of products produced in the food industry for the needs of the population, as well as the problems that need to be solved in this area. The supply of food products to the population will worsen, and the incomes of producers and processors will decrease. That is why today one of the topical issues is the development of integration through cooperation and

ensuring the continuity of all processes related to the production, transportation, processing and sale of agricultural products.

Key words: *foodstuffs, agriculture, greenhouse, "Uzghushtsanoat", "Surkhondareghusht", products.*

Kirish

Oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini mahsulotga ishlov berish darajasiga qarab ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saralash, quritish va saqlashni o'z ichiga oluvchi sohalar kirs, ikkinchi guruhga qishloq xo'jalik mahsulotiga chuqur qayta ishlov beruvchi tarmoqlarni kiritish mumkin. Oziq-ovqat tarmoqlarida ishlab chiqarish kombinatsiya tarzida tashkil etilishi bois ko'p hollarda yirik ishlab chiqarish yuqoridagi jarayonlarning barchasini qamrab oladi. Oziq-ovqat sanoati hozirgi kunda yuzlab xilma-xil tarmoqlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Surxondaryo viloyatida oziq-ovqat sanoati tarixi mavzusida O'zbekiston Milliy arxivi 82-fondi va 132-fondidan, Surxondaryo viloyati davlat arxivining 1262-fondi, 1249-fondi, 1187-fondi va 1091-fondlaridagi birlamchi ma'lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek, xorij olimlaridan Ye.G.Animitsa asarlaridan va S.N.Tursuno, T.Turdiyev tomonidan yozilgan sohaga oid bo'lgan monografiyalari o'z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola tarixiy metodlar - tarixiylik, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyati oziq-ovqat sanoatidagi yutuq va kamchiliklar tadqiq etilgan

Tahlil va natijalar Ijtimoiy omillar, ya'ni aholining uzoq-tarixiy rivojlanishi davomida shakllangan urf-odatlar, diniy e'tiqodi kabi ijtimoiy jihatlari u yoki bu tur oziq-ovqat turlarini ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, islom dinida cho'chqa go'shti, iudaizm qoramol go'shti iste'mol qilish mumkin emas. Ayni vaqtda ijtimoiy munosabatlarning globallashtirib borishi tufayli mintaqaviy oziq-ovqat mahsulotlari dunyoning aksari mamlakatlarida ommalashib bormoqda.

Qator oziq-ovqat sanoati tarmoqlari xom ashyosini uzoqqa tashish rentabelli emas. Xususan, sut, go'sht, baliq va shunga o'xshash mahsulotlar misol bo'la oladi. Ma'lumki, muzlatilgan mahsulotlar o'zining foydalilik darajasini pasaytiradi, shu bois ular bevosita xom ashyo rayonlarida qayta ishlanadi yoki iste'molchi rayonlarida ushbu mahsulotlarni yetishtirish yo'lga qo'yiladi. Masalan, yirik shaharlar atrofida intensiv sut-go'sht, tuxum tayyorlash, issiqxona mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash tashkil etiladi [1, C.4].

Ayrim hollarda, mahsulotni qayta ishlovchi korxonalar (konserva, vinochilik, sut va go'sht kombinatlari va b.q.) faoliyatida o'zaro kelishilgan holda ish olib borilmayotganligi oqibatida birinchidan, ko'pgina qayta ishlash korxonalarining quvvatlari atigi 40-50 foiz va undan ham past darajada foydalanilganligi kuzatiladi. Ikkinchi holatda esa qayta ishlovchi korxonalar mahsulot qabul qilishni yaxshi yo'lga qo'yimaganliklari oqibatida ko'plab mahsulotlar nobud bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ikkala holatda ham katta zarar ko'radi.

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash yomonlashib, mahsulot yetishtiruvchilarning, uni qayta ishlovchilarning daromadlari kamayadi. Shuning

uchun ham bugungi kunda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, tashish, qayta ishlash va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha jarayonlarni kooperatsiya orqali integratsiyalashni rivojlantirish hamda uzluksizligini ta‘minlash dolzarb masalalardan biridir.

O‘zbekistonda aholi tomonidan eng ko‘p ishlatiladigan oziq-ovqat mahsuloti bu yog‘-moydir. Yog‘-moy mahsulotlarini tayyorlashda mintaqaviy omillar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yer yuzida o‘nlab turdagi o‘simliklardan hamda baliq va boshqa turdagi hayvonlardan yog‘- moy mahsulotlari ajratib olinadi. Ammo ular orasida kungaboqar, soya, yeryong‘oq, zaytun hamda paxta xom ashyosi ishlab chiqarishda eng ko‘p foydalaniladi.

Surxondaryo oziq-ovqat sanoati tarmog‘ida yetakchi o‘rinni Denov yog‘-ekstraksiya zavodi egalaydi. Ukrainaning Kirovograd viloyatidagi o‘simlik yog‘i ishlab chiqaradigan zavodning ba‘zi agregatlari olib kelinib, Denov paxta tozalash zavodida ishga tushirildi. Korxonada o‘z mehnat faoliyatini kichik va oz miqdorda bo‘lgan asbob-uskunalar bilan boshladi. Mutaxassislar tanqisligi va tajribasi bor ishchilar yo‘qligiga qaramasdan korxonada ish faoliyatini boshladi. “Buka-Volf” bug‘ qozoni 1,5 bosimga ega bo‘lgan gidronasos, 5 vallik valsovka, kuniga yuz tonna chigitni maydalash quvvatiga ega bo‘lgan Denov yog‘ presslash keyinchalik Denov yog‘-ekstraksiya nomini olgan korxonada 1943-yilda ishga tushirildi. Shu yillarda zavod har yili 979 tonna o‘simlik yog‘i ishlab chiqargan kichik korxonadan, bugun kuniga 800 tonna chigitni qayta ishlash quvvatiga ega bo‘lgan korxonada darajasiga yetib keldi [2]. Ming nafarga yaqin ishchi-xodimlar mehnat qilayotgan jamoa faoliyatida mustaqillik yangi davrni boshlab berdi. Iqtisodiy islohotlar dadillik bilan amalga oshirilib, asosiy diqqat-e’tibor mahsulot sifatini, uning raqobatbardoshligini oshirish, xalqimizni shu xil mahsulotlar bilan ta‘minlashga qaratildi. Shu maqsadda bu yerda maxsus dastur ishlab chiqildi. Unda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan birga ishchi-xizmatchilarning moddiy manfaatdorligini oshirib borish o‘z aksini topdi.

Ushbu korxonada 1988-89-yillarda 45 ming tonnaga yaqin o‘simlik yog‘i ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 1995-yilda esa 32 ming tonna o‘simlik yog‘i ishlab chiqarildi. Buning asosiy sababi uyushma tomonidan texnik chigit bilan ta‘minlanmaganligidir. 1996-yil esa jamoada, 1995-yildagiga nisbatan 76 foizga o‘shirishga erishildi [3].

2005-yilda korxonada yangi presslash uskunalari, kompressorlarning o‘rnatilishi natijasida, shu yili 12128 tonna qora yog‘ va 10517 tonna ohorlangan yog‘ ishlab chiqarildi. Har ikkala ko‘rsatkich bo‘yicha ham 2002-yilga nisbatan 119 foizga o‘shirishga erishildi. 2002-yilda korxonada “O‘zbekiston” navli yog‘ 380 tonna ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2005-yilda bu yog‘ning salmog‘i 2441 tonnani tashkil etib, 6,5 baravar o‘shirishga erishildi [4, B.254]. Agarda mustaqillikning ilk yillarida korxonada 12818 million so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2000-yilda 1 milliard 681,1 million so‘mlik, 2005-yilda esa bu ko‘rsatkich 8 milliard 45,5 million so‘mni tashkil etdi. Korxonada nafaqat paxta chigiti balkim maxsar va kungaboqardan yog‘ olish borasida muhim tadbirlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi “Respublika aholisini yog‘-moy mahsulotlari bilan ta‘minlash, hududlarda moyli ekinlarni

yetishtirish va ularni qayta ishlash hajmlarini ko'paytirish chora tadbirlari" to'g'risidagi PQ-1047-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24-dekabr 2009-yildagi № 03-10-64-sonli majlis bayonnomasi hamda "Yog'-moy va oziq-ovqat sanoati" uyushmasining 2009-yil 30-dekabrda № 12.10-son boshqaruv qaroriga asosan 3500 gektar maydonda maxsar va kungaboqar ekish va undan yog' olish borasida ishlar amalga oshirildi [5]. Qilingan ishlar natijasini korxonaning ishlab chiqarish sur'atlari oshib borishida ko'rishimiz mumkin. 2007-yilda mahsulot sotishdagi tushum 27053350 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2008-yilda 36183853 mln. so'mni, 2009-yilda 30236138 mln. so'mni tashkil qilgani holda, sof foyda 2007-yilda 1072100 ming so'mni, 2008-yilda 1121351, 2009-yilda 1205736 ming so'mni tashkil etdi [6].

Surxondaryo viloyati go'sht mahsulotlari bilan aholini ta'minlashda katta imkoniyatlarga ega hudud hisoblanadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida viloyatda chorva tuyoq sonining kamayib ketishi go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish sur'atining pasayishiga ta'sir ko'rsatdi. Birgina 1994-yilda Termiz go'sht kombinati 9 mln 693 ming so'mlik, Termiz go'sht hissadorlik jamiyati 5 mln 878 ming so'mlik, Denov sut hissadorlik jamiyati 4 mln 636 ming so'mlik mahsulot kam ishlab chiqargan [7].

O'zbekistonning barcha viloyatlarida keyingi besh yillikda go'sht sanoati o'zining texnikaviy potensialini tiklab oldi va taraqqiy eta boshladi. Yangi kichik korxonalar va go'shtga dastlabki ishlov berish korxonalari barpo etildi. Mahsulot ishlab chiqariladigan asosiy bo'limlar qurilma va uskunalari bilan jihozlandi. Go'sht tarkibida barcha muhim elementlar tayyor holda bo'lganligi sababli, inson organizmida moddalar almashinuvida ishtirok etadi. Kuzatuvlardan ma'lum bo'lishicha, go'sht miyaga ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Miya go'shtdan ko'proq oziq olib o'sadi va rivojlanadi.

Go'shtbop qoramolchilik respublikamiz uchun nisbatan yangi tarmoq hisoblanadi. U tog'oldi, tog' yaylovlarida va Amudaryo etaklaridagi to'qay-qamishzorlarda va shunga o'xshash joylarda tashkil etilib, ko'paytirish ishlari olib borildi. Go'shtbop qoramolchilikni rivojlantirish uchun Surxondaryoning Boysun va Sariosiyo tumanlarida, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida, Sirdaryo viloyati, Jizzax viloyatining Bahmal hamda Zomin tumanlarida yaxshi sharoit bor.

Hududlar bo'yicha qaralganda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha salohiyat va imkoniyatlar Surxondaryo viloyatining deyarli barcha tumanlarida mavjud. Go'sht va sut mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha mavjud quvvatlardan Boysun, Qiziriq va Qumqo'rg'on tumanlarida yetarlicha tajriba va imkoniyatlar bor.

"O'zgo'shtsanoat" O'zbekiston go'sht va sut sanoati davlat aksionerlik assotsiatsiyasi 1993-yil 3-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 588-son farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 6-apreldagi 172-son qaroriga muvofiq tashkil qilingan edi. O'zbekiston go'sht va sut sanoati davlat aksionerlik assotsiatsiyasi sobiq Qishloq Xo'jaligi Vazirligi tassarufida bo'lgan va keyinchalik tugatilgan. "O'zgo'shtsanoat" ishlab chiqarish birlashmasining huquqiy vorisi hisoblanadi [8].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19-avgust 1996-yildagi

290-son “O‘zgo‘shitsanoat” davlat uyushmasi korxonalarini xususiylashtirish jarayonini chuqurlashtirish va davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq, Denov tumani hokimining 13 -sentabr 1996-yildagi 5-yanvar № 400 sonli xatiga asosan, “Denov mol so‘yish va bo‘rdoqiga boqish” hissadorlik jamiyatini “Surxondaryogo‘sh” hissadorlik jamiyati birlashmasi tizimidan chiqarib, mustaqil yuridik kuchga hamda bank muassasalarida hisob raqamiga ega jamiyat shaklida “O‘zgo‘shitsanoat” davlat aksionerlik uyushmasiga kiritdi [9].

“Surxonoziqovqatsanoati” hissadorlik jamiyati yog‘- moy, tamaki sanoati hisoblanadi. Korxonaning 1996-yil natijasi bo‘yicha olingan sof foyda 147252 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lib, shundan ishlab chiqarishni qayta qurollantirish va uskunalar sotib olish uchun 29599 ming so‘m sarflandi [10].

“Surxonoziqovqatsanoati” hissadorlik jamiyati paxta yog‘i, shrot, sheluxa, xo‘jalik sovuni va qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Korxonada ishlovchi ishchi xodimlari uchun bepul tushlik tashkil etilgan, ularni moddiy rag‘batlantirish uchun 798279 ming so‘m, Al-Xakim at Termiziy madrasasi uchun 3 423 000 ming so‘m va boshqa tadbirlar uchun korxonada hisobidan pul mablag‘lari sarflandi [11].

1994-yilda viloyatimizda 1275 ta dehqon fermer xo‘jaliklari tashkil qilingan bo‘lib, ulardan 847 tasi mustaqil faoliyat ko‘rsatishgan. Ushbu dehqon fermer xo‘jaliklari tayyorlov idoralari bilan 1994-yilda davlatga 850 tonna go‘sh va 3100 tonna sut topshirishga shartnomalar tuzishgan bo‘lib, 1994-yil 1-iyungacha davlatga 404,2 go‘sh va 753,9 tonna sut sotdilar. 1994-yilda ularning qaramog‘ida 15550 bosh qoramol, 4834 bosh sigir, 15235 bosh qo‘y va echki, 2185 ta asalari uyasi mavjud edi [12].

1996-yilning kuzi juda quruq keldi. Viloyatda chorva qishlovi juda og‘ir kechdi. Bu holat esa chorva sonining kamayishi va o‘z o‘rnida oziq-ovqat masalasida go‘sh tanqisligiga olib keldi. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlabgina qolmasdan, ularning ijtimoiy ahvolini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Birgina “O‘zgo‘shitsanoat” uyushma tizimidagi xo‘jaliklarda 1996-yilda jumladan, sutni qayta ishlash korxonalarida 4993 kishi, go‘shni qayta ishlash korxonalarida esa 3348 kishi faoliyat olib borib, ularning o‘rtacha oylik maoshi 1026 ming so‘mdan, 1580 ming so‘mgachani tashkil etdi [13].

1998-yilda “O‘zgo‘shitsanoat” uyushmasi viloyat bo‘linmasida 1527 ta go‘sh va go‘sh mahsulotlari yoki 1997-yilga nisbatan 816 tonnaga ko‘p, hamda 55 tonna kolbasa mahsulotlari ishlab chiqarildi. Keyingi yillarda amalga oshirilgan tadbirlar natijasida yangi go‘shni qayta ishlash korxonalarini faoliyat yurita boshladi. Bular jumlasiga yillik quvvati 750,0 tonna kolbasa mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan Boysun tumanidagi “Fayz Ramz” FX, 50,0 tonna kolbasa mahsulotlari ishlab chiqarishga mo‘ljallangan Denov tumanidagi ”Lochin” fermer xo‘jaliklarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

1998-yilda Surxondaryo viloyatida 284 ta qoramolchilik fermer xo‘jaliklari, 181 ta qo‘ychilik fermer xo‘jaliklari mavjud edi [14]. Mavjud dehqon va fermer xo‘jaliklari ixtiyorida 350 mingdan oshiq qoramol, 600 mingdan oshiq qo‘y-echki va 8000 dan ortiq otlar mavjud bo‘lib [15], ular tomonidan yetishtirilib berilayotgan

go'sht va sut mahsulotlari bilan viloyat aholisini hamda viloyat hududidagi davlat ta'minoti muassasalari va maxsus iste'molchilarni ushbu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlab keldi.

Viloyatda aholining go'sht mahsulotiga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirishda, chorva tuyoq sonini ko'paytirish borasida amalga oshirilgan tadbirlar o'z samarasini bera boshladi. 1995-yilda viloyatda 40678 bosh sigir mavjud bo'lgan bo'lsa, 2004-yil yanvar holatida 478,2 ming bosh qoramol, 1104 bosh cho'chqalar, 1,0 mln. bosh qo'y va echkilar, 1,1 mln. bosh parrandalar, 12,2 ming bosh otlar mavjud edi [16].

Viloyatda chorvachilikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar mavjudligi sababli, 2010-2015-yillarda yirik shoxli qoramollar soni 471,3 foizga, qo'y va echkilar soni 122,9 foizga, parrandalar 201,4 foizga ortdi [17].

2016-yilda yirik shoxli qoramollar 1022, 3 foizga (jami 806,2 ming boshni tashkil qilgan) shu jumladan sigirlar 101,2 foizga, qo'y va echkilar 101,1 foizga (2009,5 ming bosh), parrandalar 101,8 foizga ko'paydi. Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o'sishi asosan, dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, go'sht ishlab chiqarish 99,0 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 73,9 foizni tashkil etdi [18].

2016-yilda viloyatda yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarida aholi, shaxsiy yordamchi xo'jaliklarining ulushi yuqori bo'lib, go'shtning 94.6 foizi, parvarishlanayotgan yirik shoxli qoramollarning 93.1 foizi, qo'y va echkilarning 82,5 foizi, parrandalarning 57,3 foizi ularning hissasiga to'g'ri keldi [19].

Mustaqillikning dastlabki besh yilligida deyarli e'tibor berilmagan tizim bu baliqchilikdir. 1997-yilga kelib esa Surxondaryo viloyat baliqchilik xo'jaligi tizimida 3,7 ming gektar suv havzalari mavjud bo'lib, bular Janubiy Surxon, Oqtepa suv ombori hamda Uchqizil suv ko'llaridir. Viloyat "Surxonbaliq" korxonasi ushbu suv havzalarida baliq zahiralari ko'paytirish uchun bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Jumladan 1994-1997-yillar mobaynida mazkur suv havzalariga 3,95 mln dona baliq chavaqchalari tashlanib, shundan 653,6 ming donasi ikki yillik o'txo'r baliqlar edi. Viloyatning asosiy baliqchilik bazasi hisoblangan Janubiy Surxon suv omboridan 1997-yilda "Surxonbaliq" korxonasiga 5 tonna baliq ovlashgagina ruxsat etildi [20].

Viloyatimiz aholisini go'sht va tuxum mahsulotlari bilan ta'minlashda parrandachilikning alohida o'rni bor. Ma'lumki, mustaqillikning dastlabki yillarida jamoa xo'jaliklarining tugatilishi bilan ular qaromog'idagi parrandachilik bo'limlari ham xususiy lashtirilib, nihoyatda qiyin ahvol yuzaga keldi. Ayniqsa, 1997-yilda parrandachilik sanoatida murakkab vaziyat yuzaga kelgan. Ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining keskin kamayishi natijasida parrandachilik fabrikalarining moliyaviy ahvoli yomonlashdi.

Vujudga kelgan vaziyatning asosiy sababi, viloyatimizda mavjud parrandachilik fabrikalarining omuxta yemlarga bo'lgan talabi, miqdor va assortiment bo'yicha viloyat don mahsulotlari hissadorlik jamiyatiga qarashli korxonalar tomonidan ta'minlanishining keskin kamayganligi hamda ularning sifaqizligi va to'yimsizligidir.

Viloyat don mahsulotlari hissadorlik jamiyatiga qarashli korxonalar xom ashyo yo'qligi sababli parrandachilik fabrikalarini omuxta yemga bo'lgan talabini to'liq

ta'minlay olmadi hamda ularda ishlab chiqarilayotgan omuxta yemlar o'ta qimmatliligi tufayli mahsulot tannarxi pasaymadi, natijada parrandachilik fabrikalari doimiy zarar bilan chiqadigan sohaga aylanib qolgan edi [21].

“Termiz parrandachilik fabrikasi” ochiq hissadorlik jamiyati boshqaruvi Surxondaryo viloyat hokimligining 2000-yil 19--avgustdagi “Viloyatda parrandachilik sohasini rivojlantirish to'g'risida” gi qarorini amalda bajara borib, 2001-yilda parranda bosh sonini 155000 boshga yetkazdi. Tuxum ishlab chiqarish 25680 ming donaga va go'sht ishlab chiqarish 160,4 tonnaga yetkazildi [22].

Parrandachilikni rivojlantirish dasturiga asosan 2016-yilda 58 ta parrandachilik subyektlarini tashkil etish loyihalashtirilgan bo'lib, amalda 50 ta (244,6 ming bosh) parrandachilik subyektlari tashkil etildi. Viloyatda parrandachilikni rivojlantirish maqsadida 6,4 mlrd. so'm, shundan 1,8 mlrd. so'mlik bank kreditlari sarflandi [23].

Insonning to'g'ri ovqatlanish raqionida sut va sut mahsulotlari juda muhimdir. O'zbekistonda birinchi sut zavodi Toshkent shahrida 1928-yilda ishga tushirilgan. Surxondaryo viloyati respublikamizda sut va sut mahsulotlari yetishtirish bo'yicha yetakchi o'rnlarni egallaydi. 1996- yilda Germaniyaning “Kontinent Plyus GMBX” firmasining oziq-ovqat sanoati sohasidagi va ularni upakovkasi bo'yicha berilgan texnologiyalar viloyat tadbirkorlari hamda tadbirkorlik tuzilmalari o'rtasida ko'rib chiqilgan. “Termiz-go'sht”, “Termiz-sut” va “Denov-sut” hissadorlik jamiyatlari ushbu texnologiyalarni olish istagini bildirishdi [24].

1998-yil 10 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 434-sonli “Qaymog'i olinmagan sutni qayta ishlovchi kichik zavodlar tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida”gi qarori imzolandi. Shu qaror asosida “JRM va KoLTD” firmasi “Baraka” UKL orqali xorijning eng zamonaviy texnologiyasi bir smenada 2 tonna qaymog'i olinmagan sutni qayta ishlovchi kichik sut zavodini Termiz tumani Namuna shirkat xo'jaligiga keltirib o'rnatdi. Hozirgi kunda 8-10 turdagi sut mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Viloyatimizning shifoxona va bolalar bog'chalariga arzon narxlarda sut mahsuloti yetkazib berilmoqda [25].

Xulosa. Yuqorida keltirilgan oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiruvchi va uni qayta ishlab tayyor mahsulot holatiga keltiruvchi korxonalar, tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi integratsion jarayon yoki uzilmas zanjirni ko'rishimiz mumkin. Shunday qilib, yuqoridagi ma'lumotlar, tahlillar yuzasidan quyidagi **xulosalarga** kelindi:

1. Aholi ehtiyoji talabidan kelib chiqqan holda oziq-ovqat mahsulotlarini turlarini ko'paytirish va qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamini kengaytirish:

2. Viloyatda yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini sifatli saqlash va uni aholiga yetkazib berishda maxsus saqlanadigan muzlatgichlar sonini ko'paytirish.

3. Qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarni qayta ishlash korxonalariga yetkazib berishda, viloyatda agrologistika xizmatini rivojlantirish:

4. Oziq-ovqat sanoatiga xorij investitsiyalarini ko'proq jalb etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash kabi masalalarni hal etish buguning muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Анимица Е.Г. Территориальные основы местного самоуправления // Территория и общество. – Пермь, 2007.
2. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M. 1262-jamg'arma, 1-ro'yxat, 42-ish, 12-varaq.
3. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M. 1091-jamg'arma, 1 ro'yxat,444-ish, 40-varaq.
4. Tursunov S.,Turdiyev T. Denov. – Toshkent.: “Fan”, 2009. – B. 254.
5. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M. 1262-jamg'arma, 1-ro'yxat, 42-ish, 16-varaq.
6. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M. 1262-jamg'arma, 1-ro'yxat, 42-ish, 32-varaq.
7. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M. 1249-jamg'arma, 1-ro'yxat, 43-ish, 9-varaq.
8. O'zbekiston Milliy arxivi, M. 82-jamg'arma, 1-ro'yxat, 32-ish, 2-varaq.
9. O'zbekiston Milliy arxivi, M. 82-jamg'arma, 1-ro'yxat, 87-ish, 36-varaq.
10. O'zbekiston milliy arxivi, M. 132-jamg'arma, 1 ro'yxat, 25-ish, 98,123-varaqlar.
11. O'zbekiston milliy arxivi, M. 132-jamg'arma, 1 ro'yxat, 52-ish, 14,30-varaqlar.
12. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M.1091-jamg'arma, 1-ro'yxat, 228-ish, 12-varaq.
13. O'zbekiston Milliy arxivi, M. 82-jamg'arma, 1-ro'yxat, 169-ish, 69-varaq.
14. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M. 1091-jamg'arma, 1 ro'yxat, 667-ish, 96-varaq.
15. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M. 1091-jamg'arma, 1-ro'yxat, 660-ish, 76-varaq.
16. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M. 1187-jamg'arma, 1-ro'yxat, 60-ish, 89-varaq.
17. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M. 1262-jamg'arma, 1-ro'yxat, 365-ish. 119-varaq.
18. Surxondaryo viloyatining statistik axborotnomasi, 2016-yil. – B 56.
19. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M. 1187-jamg'arma, 1-ro'yxat,45-ish, 11-varaq.
20. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M. 1091-jamg'arma, 1-ro'yxat, 515-ish., 150-varaq.
21. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M.1091-jamg'arma, 1-ro'yxat, 517-ish. 16-varaq.
22. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M.1091-jamg'arma, 1-ro'yxat, 107-ish. 17-varaq.
23. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M. 1262-jamg'arma, 1-ro'yxat, 316-ish, 109-varaq.
24. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M. 1091-jamg'arma, 1-ro'yxat, 116-ish, 30-varaq.
25. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M. 1091-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1162-ish, 25-varaq.